

Abduqodirova Kamola Baxtiyor qizi, O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi. Guliston davlat pedagogika instituti
Email:kamolaabfuqodirova@gmail.com



PAULO KOELONING “ALKIMYOGAR” VA “ALIF” ROMANLARIDA RUHIY SAYOHAT MOTIVINING O‘XSHASH VA FARQLI TOMONLARI

<https://zenodo.org/records/18779483>

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon adabiyotshunoslaridan bo‘lgan Paulo Koeloning ijodi o‘rganiladi. Uning “Alkimyogar” va “Alif” asarlari tahlil qilinadi va ularning o‘xshash va farqli tomonlari ko‘rsatiladi. Bu romanlarda yozuvchining g‘oyaviy qarashlari ochib beriladi va mashhur yozuvchilarning Paulo Koelo ijodiga bo‘lgan fikrlari yoritiladi.

Kalit so‘z va iboralar: sayohat, aforizm, alif, alkimyogar, Paulo Koelo, maqol, matal, Misr, Rossiya, tasvir.

SIMILARITIES AND DIFFERENT ASPECTS OF THE SPIRITUAL JOURNEY MOTIVE IN PAULO COELHO'S NOVELS "THE ALCHEMIST" AND "THE ALIF"

Annotation: This article studies the work of Paulo Coelho, one of the world's literary scholars. His works "The Alchemist" and "The Alif" are analyzed and their similarities and differences are shown. These novels reveal the writer's ideological views and highlight the opinions of famous writers on the work of Paulo Coelho.

Keywords and phrases: Travel, aphorism, the alif, the alchemist, Paulo Coelho, proverb, idiom, Egypt, Russia, image.

СХОДСТВА И РАЗЛИЧНЫЕ АСПЕКТЫ МОТИВА ДУХОВНОГО ПУТЕШЕСТВИЯ В РОМАНАХ ПАУЛО КОЭЛЬО «АЛХИМИК» И «АЛИФ»

Аннотация: В данной статье рассматривается творчество Пауло Коэльо, одного из ведущих мировых литературоведов. Анализируются его произведения «Алхимик» и «Алиф», выявляются их сходства и различия. Эти романы раскрывают идеологические взгляды писателя и освещают мнения известных писателей о творчестве Пауло Коэльо.

Ключевые слова и фразы: Путешествие, афоризм, алиф, алхимик, Пауло Коэльо, пословица, идиома, Египет, Россия, образ.

Kirish.

Hozirgi paytgacha ko‘plab asarlar yozgan va shu asarlari bilan tanilgan Paulo Koelo asli Braziliyalik yozuvchidir. U 1947-yilda Rio-de-Janeyroda tug‘ilgan. U 30 ta xalqaro bestsellerlar muallifi, jumladan, “Alkimyogar”, “Brida”, “Veronika o‘lishga qaror qiladi”, “Nur jangchisi qo‘llanmasi”, “Alif”, va “O‘n bir daqiqa”. U Braziliya Adabiyot

Akademiya­si­ning aʼzosi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Tinchlik elchisi. Paulo Koelo 115 ta xalqaro mukofotlar bilan taqdir­lan­gan va shu jumladan Chevalier de l'Ordre National de la Legion d'Honneur mukofoti sovrindori. Uning asarlari, asosan, sayohat davomida kashf qilingan insonlar, voqea-hodisalar, kutilmagan vaziyatlar va his­tu­ygʻularini yaqqol ochib beradi. Betakror taqdir egalarining qismatini tasvirlash asnosida, ezgulik va yovuzlik, sabr va nafs, muhabbat va nafrat, iymon va gunoh singari umuminsoniy mavzularni keng yoritgan. Bundan tashqari, bu yozuvchining har bir asarida aforizmlar, turli diniy taʼlimotlar, Injil va Qurʼondan sharhlar va oyatlar keltirilgan. Shuningdek, u asarlarida sayohat davomida boʻlgan voqealarni keng yoritgan “Alif” va “Alkimyogar” asarlaridir.

Asarlar tahlili va metodologiyasi.

“Alif” asarida J. va Hilol asosiy qahramondir. Bu ikki qahramon bilan yozuvchi sevgini, nafratni, qoʻrquvni, intilishni, kechirishni, quvonchni, qaygʻuni keng ochib bergan va oʻsha davr voqea-hodisalari, qiyinchiliklari va tabiat manzaralarini yaqqol tasvirlangan. Bu asarda J. yozuvchining oʻzidir. U yozgan asarlari boʻyicha kitobxonlar bilan turli uchrashuvlar boʻlar, hatto ularga bu namoyishdan soʻng imzosini ham qoʻyib berar edi. Shu bilan birga, yozuvchi koʻp davlatlarga sayohati davomida boʻlib oʻtgan voqealarni real tasvirlaydi. Bu romanni Paulo Koelo ellik toʻqqiz yoshida yozgan. Kitobning oʻzida uning oʻzi bu sonlarga urgʻu berib oʻtgan. Hilolni sayohati davomida yaxshi koʻrib qoladi, ammo u bilan birga boʻla olmasligi u qizning yoshi yigirma birda ekanligini bilardi. Ammo yozuvchi oʻz ayoliga nisbatan xiyonat qilmasdan sayohatini tugatadi. Uning ayoli uni uyida kutar va hatto telefon qilib turar edi. Sayohat aynan Parijdan – Londonga, Portugaliyaga, Rossiyaga, Tunisga, Braziliyaga sayohat qiladi, u yerlarda kitobxonlari bilan uchrashadi va dastxat – sessiyalarni ham oʻtkazadi. Hilol skripka chalishga qiziqar, unchalik koʻp kitob oʻqimagan edi. Uning sayohat davomidagi sherigi Paulo boʻldi va asarning oxirida qiziqishi ortganligini koʻrishimiz mumkin.

Paulo Koelo oʻzini baxtli inson deb hisoblagan. Chunki eng qiyin kasblardan birini tanlab muvaffaqiyat qozonganligi, sevgan ayoli bilan yigirma yetti yildiki, birga yashab kelayotganligi, sogʻ-salomatligi, yaqinlariga ishonishi va kitobxonlari koʻpligidan juda ham faxrlanishini yozib oʻtgan.

Alif deganda koʻp insonlar arab, yahudiy va oromiy alifbolarining birinchi harfi sifatida tanishadi, lekin Paulo bu romanda boshqa narsani tasvirlagan. Alif – bu kutilmaganda ilhomlanish va oʻzini qulay, xotirjam sezishidir. Masalan, koʻchada ketayotganingizda yoki qayerdadir oʻtirganingizda qarshingizda birdan koinot yuz ochadi. Ilk lahzada, yigʻlagingiz keladi, bu qoʻrquv yoki quvonchdan emas, balki ilhomlanishdandir. Shuningdek, bu alif muhabbatga ham sababchi boʻlishi mumkin.

Yozuvchi asarda turli maqol va matallardan ham keltirib oʻtgan. Masalan, arablarda shunday matal bor: “Chiroqning yorugʻi faqat ajnabiy (musofir)ga tushadi”. Matal ayni hayotiydir. Bizda esa shu matalga oʻxshash maqol bor: “Hech kim oʻz yurtida paygʻambar emas” [2,48-b], deb taqqoslaydi. Portugallardan shunday maqolni keltiradi: “Davolab boʻlmasa, sabr qilinadi” [2,62-b]. “Korkma, git” jumlasini aynan turkchada “Qoʻrqmay olgʻa bos” [2,183-b] deb tarjima qilinadi. “Solve et coagula” esa ajrat va birlashtir degan maʼnoni bildiradi [2,199-b].

Paulo Koelo oʻzining “Alkimyogar” asarida esa Santyago va Fotimani bosh qahramon sifatida oladi. Santyago boylik topish maqsadida Andalusiyadan (Ispaniya) Misrga boradi, ammo u yerga borgungacha koʻplab qiyinchiliklarga uchraydi. Sayohati davomida Fotimani uchratib qoladi. U qizdan hamma xastaliklarni davolaydigan odamni qanday topishi soʻraydi. Qiz ularga janub tomonni qoʻli bilan koʻrsatib yuboradi va koʻzaga suv olib bu yerdan ketadi. Santyago boʻlsa, qizni koʻrish uchun ertasi kuni ham quduqning oldiga boradi va Fotimani

uchratadi. Har kuni qiz bilan quduq yonida uchrashganlarida unga xazina izlab yo'lga chiqqani, cho'ponlik qilgani, Maliksiddiqni qanday uchratganini va chinnivorlar bilan savdo qilgani haqida gapirib berar edi. Sayohatini davom ettira olmas, chunki Al-Fayum yerlarda urush ketayotgan edi. Santyago cho'ponlik qilishi, chinnivorlar bilan savdo qilishining sababi esa u uyidan olti dona qo'y bilan sayohatga chiqar ekan, u qo'ylarni cho'ponga sotib pul qilib oladi, pullarini keyinchalik o'g'irlatib qo'yishi sababli pulsiz qoladi va chinnivorlar bilan savdo qilib pul topadi. U yerda chinni idishlar yasab sotar edi. Maliksiddiq esa unga ikki tosh beradi, bu toshlar unga ikkilangan vaqtda yo'l ko'rsatar edi. Toshning nomlari esa, Urim va Tummimdir, Oq tosh "ha" degani bo'lsa, qora tosh "yo'q" degani edi. Bu romanning so'ngida esa Santyago Misr ehromlariga boradi va hayratdan qotib qoladi. U yerdan hech qanday xazina topmaydi, balki u o'zligini topadi. Uning sayohati davomida bo'lgan barcha voqea-hodisalar xazina ekanligini tushunadi.

Natija va muhokama.

Pauloning ikki romanida ham bir jumlaning uchratishimiz mumkin. "Biroq sayohatda asosiysi pulmas, balki dovyuraklik. Men butun yoshligimni dunyo bo'ylab sandiraqlab o'tkazdim. O'shanda menda pul bormidi? Yo'q. Men topilgan narsa bilan oziqlanib ketaverar, vokzallarda uxlar, til bilmasligim bois yo'lni ko'rsatishlarini ham so'ray olmasdim" [2,17-b] – "Alif" asaridan. "Endi esa, xuddi shu kunning oqshomida u boshqa mamlakatda- begona yurtdagi begona odam, hatto bu yerliklarning tilini ham bilmaydi. U endi cho'pon ham emas, u bor narsasidan mosuvo bo'ldi –avvalo pullaridan, demak, endi hammasini qaytadan boshlash uchun ortiga qaytolmaydi" [1,48] – "Alkimyogar" asaridan.

Shuningdek, bu ikki asarlarida aforizmlarni ko'p uchratamiz. Bu aforizmlar, asosan, vaqt, muvaffaqiyat, hayot, insonlar, ishonch, gumon, va o'lim mavzularida berilgan. Bunga misol keltiradigan bo'lsak, "Yashash – ertadan-kechgacha hayotning mohiyati haqida o'ylab yotish emas, balki har lahzani ongli ravishda yashab o'tishdir". – "Alif" asaridan[2,74-b]. "Bir marta yuz bergan narsa ikkinchi marta bo'lmasligi mumkin. Ammo ikki bor yuz bergan narsa uchinchi marta, albatta, bo'ladi" – Alkimyogar asaridan[1,159-b].

Romandagi alkimyogar – hamma narsani anglagan, maqomga erishgan odamdir. Bundan tashqari, alkimyogarni "Taqdirim" deb ta'riflaydi yozuvchining o'zi[1,4-b]. Bu asarlarning o'xshash tomoni sayohat qilishi va insonlarni kashf qilishdan iborat.

Muallif tabiatni badiiy tasvirlagan va kitobxonni o'sha muhitga olib tusha olgan. Masalan, "Falak dehqoni sepib yuborgan yulduzlar aro to'lin oy ko'rindi – yigitchaning sahroga chiqqaniga roppa-rosa bir oy bo'libdi. Oyning jamolini yerga ta'riflayotgan nurlar barxanlar aro oydin qo'shiqlar aytib yugurar, ularning soyalarini raqsga chorlar va sahroni to'lqinlanayotgan dengizdek hayajonga solar edi". – "Alkimyogardan" [1,163-b]. "Qarshimda yastanib yotgan ko'l shunchalik ulkanki, narigi sohili deyarli ko'rinmaydi. Qorli tog'lar fonida baliqchi qayig'i tip-tiniq suv betida suzib boradi" – Alif asaridan [2,237-b].

Juan Arias bilan bo'lgan intervyuda aytib o'tganidek, o'sha paytlarda Koelo qarama-qarshiliklarga ega bo'lgan ingliz mistigi Aleister Crowley ijodi ta'sirida bo'lgan. Ta'sir nafaqat musiqa, balki o'sha Minais Gerais'ga ko'ra jamiyatda anarxist jamoa hisoblangan «Alternativ jamiyat» tuzish planlariga ham o'tib ketadi.[3] Karl Jung iborasi bilan aytganda "mushtarak g'ayrishiuriylik" yoki olam qalbi bo'lmish alkimyodagi ifodalardan foydalanishni xush ko'raman. "Quvvat markazi"ga erishganingizda siz jamiki savollarga javob olasiz, muammolar yechimini topasiz. Bu to'g'rida Borxes ham juda ko'p yozgan. Borxes buni Alif – jamiki narsa mujassam bo'lgan makon deb tasvirlaydi. Alif tushunchasini u yahudiylar dinidagi "Ko'hna o'git" deb nomlangan tasavvufiy qarashlardan olgan. Qolaversa, bu alifboning ham boshidir. Bu shunday makonki, bir vaqtning o'zida ushbu joy barcha narsani o'zida namoyon etadi. Borxesning "Alif" nomli asaridagi qahramon

sayohatga chiqadi, to'siqlarga duch keladi va tasodifan Alifga tushib qoladi. U bir vaqtning o'zida hamma narsani, chakalakzor va o'rmonlarni, daryolarni va jamiki borliqni ko'radi. Buni inson boshidan o'tkazadigan g'ayrihuuriy holat deb atasa ham bo'ladi. Men uchun ikki buyuk inson bo'lgan. Qo'shiqchi Jon Lennon hamda yozuvchi Jorj Luis Borxes. Bolaligimda u bilan uchrashishni shu qadar orzu qilar edimki, oxir-oqibat bu buyuk inson bilan uchrashishi uchun avtobusga o'tirib Rio-de-Janeyrodan Argentinaga yo'l oldim. Menga berilgan manzil bo'yicha keldim. Adib uyi qarshisidagi mehmonxona hovlisida, kursida o'tirardi. Men unga yaqinroq bordim. Men u bilan suhbatlashish uchun ikki kecha-kunduz yo'l bosib bu yerga kelgandim. Ammo uning salobati tufayli bo'lsa kerak, mum tishlab qoldim. O'z-o'zimga "Men o'z yo'lchi yulduzim bilan yuzma-yuz turibman. Yulduzlar esa hech qachon gapirmaydilar. Ular bilan pinhona gaplashish mumkin," deb taskin berdim.

Mening ijodimda Borxes katta ahamiyatga ega. Uning nasriy va nazmiy asarlarini takror-takror sevib o'qiyman. "Garchi yoshimiz o'rtasidagi farq katta bo'lsa ham, men u bilan bir kunda – 24 avgust kuni, bir burj ostida tug'ilganimdan faxrlanaman" – deb aytadi yozuvchining o'zi.[4]

Xulosa.

Shu asosda aytishim mumkinki, bu ikki romandagi bosh qahramonlarning taqdiri ijobiy tamomlandi. Bu qahramonlar esa o'z orzulari yo'lida turli sarguzashtlarni boshidan kechiradi, turli odamlar bilan uchrashadi, ulardan g'alati maslahatlar oladi, ammo taslim bo'lishmaydi. Jumladan, yozuvchi o'z his-tuyg'ularini batafsil yoritadi. "Alkimyogar" va "Alif" asarlarining farqli tomonlari biri afsonaviy tarzda yozilgan bo'lsa, ikkinchi asarda esa, esse tarzida kundalik hayotiy voqealar tasvirlangan. Alkimyogarda har bir qahramon o'z orzusiga erisha olishi bo'lsa, Alifda esa hayotning murakkabligi, xatolardan to'g'ri saboq chiqara olish aks ettirilgan. Bu romanlarning aynan o'xshash tomonlari esa, o'zlikni anglash, ichki dunyosini topishi va hayotiy saboqlar olishi kiradi. Eng muhimi, Paulo Koelo zamonamizning eng sevimli yozuvchilaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Paulo Koelo, "Alkimyogar". "Yangi asr avlodi", 2023-yil.
2. Paulo Koelo. "Asaxiy Books" MChJ, 2020
3. Manba: Kitobxon.com <https://share.google/e2qpAGSTqq6c2Oftf>
4. Erkin Vohidov: "Shaxmat abadiydir, she'r ham abadiy..." (2012) <https://share.google/q24LmqpfaURUtGpVV>
5. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/paulo-koelo/>